



SOHIBQIRON YULDUZI

Ijtimoiy-tarixiy, tarixiy va ommabop jurnal

СОХИБКИРОН ЮЛДУЗИ

Общественно-исторический, историко-популярный
журнал

OWNER STAR

Socio-historical, historical and popular magazine

Qarshi-2024



Bosh muharrir:

Ochil Bo‘riyev

Nashr uchun mas’ullar:

Ravshan To‘xtamishov, Ilhom Tog‘ayev

TAHRIR HAY’ATI

A’ZOLARI:

akademik Akmal Saidov

akademik Anatoliy Sagdullayev

akademik Dilorom Yusupova

Sirojiddin Sayyid

prof. Abdurahim Erkayev

prof. Qahramon Rajabov

prof. Yulduz Ergasheva

prof. Bahodir Eshov

filol.f.d. Nafas Shodmonov

To‘lqin Hayit

t.f.d. G.Mo‘minova

prof. Shokir G‘afforov

filol.f.d. Xo‘jamurod Jabborov

filol.f.d. Damin To‘rayev

t.f.d. Akram Hasanov

prof. Kamoliddin G‘aniyev

t.f.n.dots. Matluba To‘rayeva

t.f.d.Faxriddin Rahmonov

t.f.f.d. Saodat Murtazova

t.f.f.d. Ra‘no To‘xtayeva

t.f.f.d. Feruz Narmanov

p.f.n.d. Mahbuba Ismoilova

t.f.f.d dots. Shuxrat Turayev

t.f.f.d.Sarvinoz Omonova

t.f.f.d.Oksana Rakmonkulova

t.f.f.d Sohiba Sulaymonova

t.f.f.d.Jamshid Kucharov

t.f.f.d. Mamlakat Qodirova

t.f.f.d. Nargiza Samadova

Manzilimiz:

Qarshi shahri, Mustaqillik shoh ko‘chasi, 2-uy. Telefon: 91.466-80-32

Elektron manzilimiz: sohibqiron-jurnali@mail.ru



	SOHIBQIRON YULDUZI СОХИБКИРОН ЮЛДУЗИ OWNER STAR
Ijtimoiy-tarixiy, tarixiy va ommabop jurnal 2010 yildan boshlab chiqarilmoqda	2024/ 4 (57) - SON
Muassis: SOHIBQIRON SHULASI M.CH.J. Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik shoh ko'chasi, 2-uy. Telefon: 91.466-80-32 Sayt: www.sohibqiron-yulduzi.uz E-mail: sohibqiron-jurnali@mail.ru Qashqadaryo viloyat matbuot va axborot boshqarmasida 2012 yil 12 martda 14-076 raqami bilan ro'yxatga olingan. Jurnal yilda 4 marotaba chop etiladi. Jurnaldan ko'chirma olinganda manba qayd etilishi shart. Nashr indeksi - 4074 ISSN 2181-2845 7-sonli nashr. Terishga topshirilgan sana 16.07.2024 y. Nashrga berilgan sana 05.09.2024 y. Chop etilgan sana 28.09.2024 y. Bichimi 60x84 1/8. Times garnituras. Shartli bosma tabog'i 6,26. Nashr bosma tabog'i 6,25. Adadi 100. Buyurtma №410 Jurnal «Rhoto Express»	MUNDARIJA TADQIQOT Kenjayev S. Amir Temurning savdo diplomatiyasida Elxoniylar sulolasi vakillarining ishtiroki.....7 Odinayeva U. Sohibqironning Hindiston safarida fuma va hind jangchilarining qurol-yaroqlari tasnifi.....13 Rustamov F. Temuriylar saltanatida turkiy va qardosh xalqlarning mintaqa madaniy hayotiga tasiri.....20 Бўриев О, Усмонов М. Мукаддас мунокибларда табиатни муҳофаза қилиш масаласи.....25 Abduraimov D. Buyuk Ipak yo'li orqali olib borilgan Ustrushona va Hindistonning madaniy aloqalari.....30 Akmalxonov A. "Miftahu-l-ulum" asarida ikkita harfdan tashkil topgan yordamchi so'zlar talqini.....35 Axmadova N. O'zbekistonning Rossiya Federatsiyasi bilan ta'lim sohasidagi hamkorligi.....42 Begaliyev J. 1940-1970 yillarda O'zbekistonda mualliflik huquqlarini himoya qilish borasidagi ba'zi muammolar xususida.....48 Eralov A. O'zbekiston janubiy viloyatlarining turizm salohiyatini ommalashtirish yo'nalishlari.....58 Ergashev F. O'zbekistonda bolalar sporti rivoji.....65 Imamov B. O'rta Osiyo xonliklarining Usmoniylar davlati bilan munosabatlari.....67 Begaliyev N. Buxoro xonligidagi sardobalar tarixi.....73 Rahmonqulov A. Musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholashning mezonlari.....79 Safayev M. O'zbekiston tarixi davlat muzeyining gilam to'plami.84 Хидирова Г. Бухоро амирлиги билан Қашқадарё воҳаси бекликари ўртасидаги ижтимоий-сиёсий жараёнлар.....93 Oltiboyev A. O'zbekiston Respublikasi bilan qozog'iston respublikasi hamkorligining muhim jihatlari.....102 Сохибов А. Фольклор, устное творчество народа и его особенности.....104 Жумаев Ж. Ўзбекистонда бола ҳуқуқлари кафолатларининг яратилиши.....107 Исаев Й. Абу Ҳафс Бужайрийнинг тафсир илмида тутган ўрни.....115 Исҳоқов М. Мухр изидаги суғдий ёзув.....120



ishlab chiqarish korxonasi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Qarshi shahri Mustaqillik shoh ko'chasi, 22-uy.	Ибрагимов С. Генерал Жўрабек ҳақида қайдлар (Южин Скайлернинг “Туркистон” асари асосида).....122 Самадова Ф. Imom Iso At-Termiziyning ilmiy-ma'naviy merosini ochish.....132 Ernazarov A. G'uzor bekligining tarixiy-geografik tasnifi.....135 Ko'charov J.Q. XIX asrning 70-yillaridagi xalqaro munosabatlarda Buxoro amirligi ishtiroki masalalariga doir.....141 Orziyev M. Russ-Turk urushi davridagi xalqaro munosabatlarda Buxoro va Afg'oniston davlatlari ishtiroki xususida.....151 Низомов Х. Ўзбекистон - Тожикистон: ҳамкорликнинг устувор йўналишлари.....162 Qanoatova F. Ayollar tadbirkorligining o'ziga xos xususiyatlari.....168 Berdiyev A. Sayyoh va elchilar esdaliklarida Qo'qon xonligining savdo-iqtisodiy aloqalarini aks etishi.....177 Бегалиев Н. Ўзбекистоннинг қадимги гидротехник иншоотлари: тарихий типологик таҳлил.....189 Maxmudov D. A. Ilk o'rta asrlarda markaziy sug'dtarixshunosligi va manbashunosligi.....195 Расулова И. Бутуниттифок фавкулудда комиссияси (ВЧК)нинг ташкил топиши ҳақида айрим мулоҳазалар202 Xolikulov P. Mustaqillik yillarida O'zbekiston farmatsevtika sanoati: holati va rivojlanishish yo'li.....212 ОГЛАВЛЕНИЕ ИССЛЕДОВАТЬ Кенджаев С. Участие представителей династии Эльханидов в торговой дипломатии Амира Темура.....7 Одинаева У. Классификация вооружения фума и индийских воинов СохибкIRONA во время его путешествия в Индию.....13 Рустамов Ф. Влияние тюркских и братских народов на культурную жизнь региона в период правления Тимуридов....20 Бориев О., Усманов М. Проблема охраны природы в святых местах.....25 Абдураимов Д. Культурные связи Уструшоны и Индии через Великий Шелковый путь.....30 Акмалханов А. Толкование вспомогательных слов, состоящих из двух букв, в произведении «Мифтаху-л-улум».....35 Ахмадова Н. Сотрудничество Узбекистана с Российской Федерацией в сфере образования.....42 Бегалиев Ж. О некоторых проблемах защиты авторских прав в Узбекистане в 1940-1970-е годы.....48 Ералов А. Направления продвижения туристического потенциала южных регионов Узбекистана.....58 Эргашев Ф. Развитие детского спорта в Узбекистане.....65 Имамов Б. Отношения среднеазиатских ханств с Османским государством.....67 Бегалиев Н. История цистерн в Бухарском ханстве.....73 Рахмонкулов А. Критерии оценки знаний, умений и квалификации учащихся на занятиях по музыкальной культуре.....79
--	--



**RUSS-TURK URUSHI DAVRIDAGI XALQARO
MUNOSABATLARD A BUXORO VA AFG‘ONISTON DAVLATLARI
ISHTIROKI XUSUSIDA...**

Orziyev Mahmud Zayniyevich- t.f.f.d. (PhD), dotsent.

ORCID: 0000-0002-4171-0274

E-mail: mahmudorziyev78@gmail.com

Buxoro davlat universiteti, Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrası. Buxoro shahri

Annatatsiya: Ushbu maqolada, XIX asrning 70-yillarida O‘rta Osiyoni istilo qilish borasida ingliz-russ raqobati va ushbu raqobat dunyoning turli mintaqalarida yuz bergan siyosiy-harbiy to‘qnashuvlarda O‘rta Osiyodagi o‘zaro raqobatni yanada alanga olishiga sabab bo‘lganligi, jumladan, 1877-1878 yillarda ro‘y bergan russ-turk urushi davrida Buyuk Britaniya josuslik xizmatining Afg‘oniston va Buxoro amirligi hududida faol harakat qilganligi. o‘zlarining vassali hisoblangan Afg‘oniston amiri Sheralixondan russ-turk urushi davrida Usmonli turk saltanati tomonidan turiburushga kirishni talab qilinishi, Usmonli turk saltanati bilan yaqinlashish orqali, Buxoro va Afg‘onistondagi musulmonlarni diniy hissiyotlaridan foydalanib qolishga urinishlari, musulmonlarni ruslar (g‘ayriddinlar)ga qarshi g‘azovot urushiga chorlashlari. Usmonli turk saltanati targ‘ibotchilarining Buxoro va Afg‘oniston amirliklari hududlariga ko‘plab kelishlari. Ular targ‘ibotchilik bilan birgalikda ayg‘oqchilik bilan ham shug‘ullanganliklari, Buxoro va Afg‘onistonning qo‘shini, qurollanishi bilan bog‘liq sirlarni yetkazishlari, Usmonli turk saltanatining taniqli siyosatchilari (Ahmad Xulusi afandi, Sulaymon afandi), islom olmamida mashhur ulamolarning Afg‘oniston amiri Sheralixon huzuriga yuborilishi va ular Afg‘onistonni urushga tortishga urinishlari, o‘z navbatida Afg‘onistonda Rossiya imperiyasining ta‘siri masalalari, Turkiston general-gubernatori K.P. fon Kaufman qa Afg‘oniston amiri Sheralixon o‘rtasidagi munosabatlar keltirib o‘tilgan. Shuningdek, Buxoro amirligida ham Rossiya imperiyasiga qarshi qo‘zg‘olon boshlashga da‘vatlar bo‘lganligi, Usmonli turk saltanatining nufuzli shaxslarining Buxoro amiriligiga yashirincha kelishlari, hatto, sobiq valiahd shahzoda Abdumalik Katta To‘ra tomonidan amir Muzaffarxonga elchilar qo‘zg‘olon ko‘tarishga chorlab yuborilganligi, russ-turk urushi davrida mintaqada xavf ortishi munosabati bilan Sibirdagi bir qism qo‘shinlar Turkiston general-gubernatorligiga tashlangani manba va tarixiy adabiyotlardagi fikr-mulohazalarni tahlil qilish orqali keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Xalqaro munosabatlar, protektorat, targ‘ibotchi, russ-turk urushi, elchi, ayg‘oqchi, imperiya, ittifoq, “g‘azovot”, “Turkiston to‘plami”, chegara, hukumdor, amir



УОК 94:330 (575.146)

УЧАСТИЕ ГОСУДАРСТВ БУХАРА И АФГАНИСТАН В МЕЖДУНАРОДНЫХ ОТНОШЕНИЯХ В ПЕРИОД РУССКО- ТУРЕЦКОЙ ВОЙНЫ...

Орзиев Махмуд Заиниевич – к.и.н. Кандидат медицинских наук,
доцент. ОРСИД: 0000-0002-4171-0274

Электронная почта: mahmudorziev78@gmail.com

Бухарский государственный университет, кафедра археологии и
истории Бухары. город Бухара

Аннотация: В данной статье рассматривается англо-русское соперничество за завоевание Средней Азии в 70-е годы XIX века и то, что это соперничество вызвало военно-политические конфликты в разных регионах мира, что еще больше обострило взаимное соперничество в Центральной Азии. Азия, включая русскую войну, проходившую в 1877-1878 годах - во время турецкой войны британская шпионская служба действовала в Афганистане и Бухарском эмирате. Что они сделали? Они потребовали от Османской турецкой империи заключить союз с афганским эмиром Шералиханом, считавшимся их вассалом, во время русско-турецкой войны. Многочисленные приезды пропагандистов Османской Турецкой империи на территории Бухары и эмиратов Афганистан. О том, что они наряду с пропагандой занимались шпионажем, что они передавали тайны, связанные с армией и вооружением Бухары и Афганистана, что известные политики Османско-Турецкой империи (Ахмад Хулуси-эфенди, Сулейман-эфенди), известные учёные исламского мира были отправлены в присутствие афганского эмира Шерали-хана, и что они пытались втянуть Афганистан в войну, в свою очередь, Россию в Афганистане. вопросы влияния империи, Туркестанский генерал-губернатор К.П. Упоминались отношения фон Кауфмана с афганским эмиром Шерали-ханом. Также были призывы к восстанию против Российской империи в Бухарском эмирате, тайные визиты влиятельных лиц Османской турецкой империи в Бухарский эмират и даже тот факт, что бывший наследный принц Абдумалик Катта Тора отправил послов к эмиру Музаффару. Хан поднял мятеж, в связи с возрастающей опасностью в регионе во время русско-турецкой войны. Часть войск в Сибири-Туркестане. был доведен до генерал-губернаторства путем анализа источников и мнений в исторической литературе.

Ключевые слова: Международные отношения, протекторат, пропагандист, русско-турецкая война, посол, шпион, империя, союз, «газавот», «Туркестанский пакет», граница, правитель, эмир.



**PARTICIPATION OF THE STATES OF BUKHARA AND
AFGHANISTAN IN INTERNATIONAL RELATIONS DURING THE
RUSSIAN-TURKISH WAR...**

Orziyev Mahmud Zainiyevich - Ph.D. (PhD), associate professor. ORCID:
0000-0002-4171-0274

E-mail: mahmudorziyev78@gmail.com

Bukhara State University, Department of Archeology and History of
Bukhara. Bukhara city

Abstract: In this article, the English-Russian competition for the conquest of Central Asia in the 70s of the XIX century and the fact that this competition caused the political-military conflicts in different regions of the world to further inflame the mutual competition in Central Asia, including the Russian war that took place in 1877-1878 - during the Turkish war, the British spy service was active in the territory of Afghanistan and the Emirate of Bukhara. During the Russo-Turkish war, the Afghan emir Sheralikhan, who was considered their vassal, was asked to enter into an alliance with the Ottoman Turkish Empire. trying to take advantage of them, inviting Muslims to wage a war of aggression against the Russians (non-Muslims). Many arrivals of propagandists of the Ottoman Turkish Empire to the territories of Bukhara and the emirates of Afghanistan. The fact that they were engaged in espionage along with propaganda, that they conveyed secrets related to the army and armament of Bukhara and Afghanistan, that famous politicians of the Ottoman Turkish Empire (Ahmad Khulusi Effendi, Suleiman Effendi), famous scholars in the Islamic world were sent to the presence of the Afghan emir Sherali Khan, and that they tried to drag Afghanistan into war. in turn, issues of influence of the Russian Empire in Afghanistan, Governor General of Turkestan K.P. The relationship between von Kaufman and the Afghan emir Sherali Khan was mentioned. Also, there were calls to start a rebellion against the Russian Empire in the Bukhara Emirate, the secret visits of influential persons of the Ottoman Turkish Empire to the Bukhara Emirate, and even the fact that former crown prince Abdumalik Katta Tora sent ambassadors to Emir Muzaffar Khan to raise a rebellion, due to the increasing danger in the region during the Russo-Turkish war. Part of the troops in Siberia were sent to the Turkestan General Governorate by analyzing the sources and opinions in the historical literature.

Key words: International relations, protectorate, propagandist, Russo-Turkish war, ambassador, spy, empire, alliance, "gazavot", "Turkistan package", border, ruler, emir

Kirish. XIX asrning 70-yillarida O'rta Osiyo masalasida Rossiya va Angliya raqobati kuchayib ketgan bo'lib, bu raqobat xalqaro maydonda ikki imperiyaning bir-biri bilan diplomatik va siyosiy to'qnashuvlarining markazida turgan. Ammo, o'zaro kelishuvga ko'ra ikki o'rtada Afg'oniston va Buxoro amirliklari bufer zonani tashkil qilgan bo'lib, tinchlik kafoloti hisoblansada, istalgan daqiqada urush chiqish ehtimoli mavjudligi saqlanib qolingan. Rossiya imperiyasi Buxoro amirligi orqali



chegara mustahkamligini saqlashga intilsa, Buyuk Britaniya Afg'onistonni qurollantirib, shimoldagi yerlarni egallashga rag'batlantirishga uringan. Bir so'z bilan aytganda imperialistik davlatlar o'z manfaatlari yo'lida bu ikki musulmon davlatidan foydalanishga harakat qilgan. Ushbu jarayonlarning yuqori cho'qqisi 1877-1878 yillardagi russ-turk urushi bo'lib, inglizlar Rossiya imperiyasini kuchsizlantirish maqsadida Afg'oniston va Buxoro davlatlarida Usmonli turk saltanati targ'ibotchilari orqali Rossiyaga qarshi kayfiyatni shakllantirish va mintaqada notinchlik uyushtirishga hakarat qilganlar.

Russ-turk urushi davrida Afg'oniston amiri bo'lgan Sheralixonning Turkiston general-gubernatori K.P. fon Kaufman bilan iliq munosabatlari sababli Afg'oniston Rossiyaga qarshi urush harakatlariga qo'shilmagan. Shunday bo'lsada, Afg'oniston, Buxoro davlatlari hududida turk targ'ibotchilari, ayg'oqchilarining faoliyati keng quloqch yoyganligini tarixiy fakt va dalillar orqali bilib olish mumkin.

Adabiyotlar tahlili

Ushbu maqolani mazmunan yoritishda foydalanilgan adabiyotlarda asosan russ-turk urushi davrida Turkiston general gubernatorligi va Afg'onistonda sodir bo'lgan voqeyliklar, bu hududlarga kelgan turk va ingliz ayg'oqchilari, targ'ibotchilari, ularning oldiga qo'yilgan vazifalar kabi masalalarga e'tibor qaratilgan bo'lib, ularning qisqacha tahlili quyidagicha. B.Akunin izlanishlarida asosan Rossiya imperiyasi va Usmonli turk saltanati o'rtasidagi qarama-qarshiliklar, Usmonli turk sultonlarining musulmonlarning xaifasi sifatida Rossiya imperiyasi hududidagi musulmon aholisiga ta'siri va bunga Rossiya imperiya xavfsizlik, politsiya tashkilotlarining munosabati masalalari keng yoritilgan [1]. S.N. Brejnev esa, taniqli sharqshunos olim D.N. Logofet tadqiqodlarida Buxoro amirligining Rossiya protektorati davridagi ijtimoiy-siyosiy hayoti, shu jumladan, Usmonli turk targ'ibotchilarining faoliyatiga oid ma'lumotlarni keltirib o'tgan [2]. Usmoniylar imperiyasining Markaziy Osiyo davlatlari bilan munosabatlari, o'zaro elchilik, targ'ibotchilik masalalari, ayg'oqchilik kabi ko'plab masalalarni A.D. 3. Vasilevning dissertatsiyasi avtoreferatida o'z aksini topgan [3].

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning boshlariga oid “Turkiston to'plami” muhim manbabo'lib, uning turli tom va bo'limlarida russ-turk urushi davriga oid qimmatli maqola va xabarlar keltirilgan. Russ-turk urushi davrida xalqaro munosabatlarga oid M.A. Venyukov izlanishlari, Rossiya imperiyasi tarkibidagi turk targ'ibotchilari faoliyatiga oid xabarlar mavzuning manbaviy asoslaridan biri bo'lib xizmat qiladi [4; 5; 6;]. Turkiston general gubernatorligi mavjud bo'lib turgan davr tarixi bilan shug'ullangan Z.D. Kastelskaya asarida asosan general-gubernatorlikning Buxoro amirligi va uning Afg'oniston bilan munosabatlariga asosiy e'tibor qaratilgan [7]. Ye.N. Krupeshkin izlanishlarida Turkiston general gubernatorligining ma'muriy tuzilishi va undagi o'zgarishlarning ijtimoiy hayotga ta'siri masalalari ko'tarilgan [8]. D.N. Logofet Buxoro amirligining o'sha davrdagi holatini tahlil qilib, amirlikda Rossiyaga qarshi kayfiyatning asosiy omillarini tahlil qilgan [9]. Russ-turk urushi davrida, xususan ingliz-afg'on urushi boshlang'ich davrida Afg'onistonga sayohat qilgan I.L. Yavorskiy xotiralarida Afg'onistonda



turk targ'ibotchilari faoliyati, ingliz ayg'oqchiliklari haqida ko'plab qiziqarli faktlar keltiriladi [10]. Rossiyaning O'rta Osiyodagi siyosati, islom diniga munosabat, musulmonlarning muqaddas ziyoratgohlarga borish masalalari ham tarixiy adabiyotlarda atroflicha yoritib o'tilgan[11].

O'zbekiston Respublikasi Milliy Arxivi materiallari mavzu mazmunini yoritishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, Turkiston general gubernatorligi kanselyarisi hujjatlari ushbu mavzuni yoritishda katta ahamiyatga ega ma'lumotlarni beradi[12; 13;]. Buxoro amirligi bozorlarida olib borilgan targ'ibot ishlari M.N. Fyodorov izlanishlarida[14]. Inglizlarni Afg'onistondagi siyosati inqirozi[15]. Afg'onistonga amir Sheralexon hukumronligi davrida sayohat qilgan Rossiya imperiyasi sayyohlarining esdaliklari[16]. XIX asr oxirida O'rta Osiyoda ingliz-russ raqobati va uning natijasida kelib chiqqan siyosiy jarayonlarni G.A. Hidoyatov tadqiqodlarida tahlil qilingan[17]. A.B. Shikorad esa Rossiya va Angliya raqobatini ayg'oqchilik va targ'ibot usullari bilan olib borganligini o'z izlanishlarida keltirib o'tgan[18].

Tadqiqot usullari

Mavzuni mazmunan yoritishda metodologik nuqtai-nazardan qiyosiy tahlil, xronologik izchillik tamoyillari, xolislik, tarixiylik, tizimli yondashuv kabi usullardan foydalanilgan. Shuningdek, "Turkiston to'plami" va O'zbekiston respublikasi Milliy Arxividagi manbalardan foydalanib, manbalarni aniqlash, o'rganish, tahlil qilish usullaridan keng foydalanildi.

Tadqiqot natijalari.

Rossiya imperiyasining Bolqonda yetakchilik qilish maqsadidagi hatta harakatlari natijasida boshlanib ketgan Rus-turk urushi (1877-1878 yy) Buxoro va Turkiston o'lkasida Rossiya manfaatlarini tahlikaga ostiga kelib qolishiga sabab bo'lgan. Urush esa, geosiyosiy nuqtai-nazardan Rossiya hukumron doiralarini Usmoniylarning potensial ittifoqchisi bo'lgan Angliya bilan urush holatiga yaqin keltirib, vaziyat O'rta Osiyo uchun xavfli tus olgan. Ehtimoliy urush harakatlaridan xavfsiragan Rossiya imperiyasi Turkiston o'lkasiga Orenburg va G'arbiy Sibir hududlariga qo'shimcha askarlarni jo'natishga majbur bo'ladilar[8. 77]. Bu Usmonli-turk targ'ibotchilari tomonidan Buxoro amirligi va Turkistondagi faoliyati bilan ham bog'liq bo'lgan. Rus-turk urushi va uning oqibatlari natijasida Yevropa davlatlari katta urushga tortilish arafasida qolganlar. Usmonli-turk saltanatini Angliya qo'llab-quvvatlash evaziga Buxoro amirligi, Turkiston bozorlarini egallashga harakat qilgan bo'lsa, Germaniya XIX asr 70-yillarida Rossiyaning Angliya bilan O'rta Osiyodagi raqobatida Rossiyani qo'llab-quvvatlash orqali Fransiyaga qarshi kurashda Rossiya qo'llab-quvvatlashiga erishishga harakat qilgan[7. 21]. Tarixiy adabiyotlarda bu xususda ko'plab ma'lumotlarni uchratish mumkin.

Muhokama natijalari

1876 yildan boshlab Kobul orqali Buxoroga ko'plab turk emissarlari kirib kela boshlagan. Bu hol rus-turk urushi arafasida ayniqsa kuchayganligi ni ko'rish mumkin. 1877 yilning aprel oyida ham Usmonli-turk sultoni elchilari Kobulga kelib, Avg'oniston bilan ittifoqlikda ruslarga qarshi kurashish, va inglizlar yordamini



olishni taklif qilgan. Ammo, bu vaqtda Sheralixonning Kaufman bilan siyosiy va diplomatik munosabatlari yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lib, turklarning takliflari va niyatlaridan Sheralixon Turkiston general-gubernatori K.P. fon Kaufmanni ogohlantirgan[18. 120]. Kobulga kelgan turk targ'ibotchisi ko'zga ko'rgan siyosiy arbob bo'lib, o'sha davr manbalarida bu shaxs Ahmad Xulusi afandi ekanligi qayd etib o'tilgan. Rossiya imperiyasi matbuotida jumladan, "Golos" gazetasining 1877 yil 21 noyabrda 275-sonida, Ahmad Xulusi afandi Kobulga kelganda, uni zo'r e'tibor bilan kutib olinishi, uning asosiy vazifasi Sheralixonni inglizlar bilan do'stona aloqada bo'lishga chorlash bo'lganligi keltirib o'tilganligini o'rish mumkin[6. 31]. Sheralixon inglizlardan imkon qadar mustaqil siyosat yuritishga harakat qilgan. Kobulga yetib kelgan va katta tantana bilan kutib olingan Ahmad Xulusi afandi Sheralixonga Usmonli turklarning ruslarga qarshi "g'azovot" urushini boshlaganliklari, barcha musulmonlar bunga ishtirok etishi zarurligi, Avg'oniston amiri Buxoro davlati bilan birgalikda kurashga ko'tarilishi lozimligini Sheralixonga uqtirishga harakat qilgan[17. 255]. Taniqli olim N.A. Xal'fin ma'lumotlarida Ahmad Xulusi afandi Avg'oniston hukumdoriga Usmonli-turk sultoni tomondan yozilgan maktub ham olib kelgan bo'lib, 1877 yil Sheralixonga sulton maktubi ham topshirilgan. Maktubda, Usmonli-turk sultoni Sheralixonni inglizlar bilan ittifoqlikda ruslarga qarshi kurashish, Buxoro va Xivani ruslardan ozod qilishda hamkorlik taklif qilgan[15. 41]. Usmoniylar davlati elchisiga va sulton maktubiga javob berar ekan Sheralixon inglizlar bilan ittifoq bo'lish xavfliligini ta'kidlab, bir necha yillar oldin O'rta Osiyo davlatlari Usmonli-turki sultonidan xuddi shunday ruslarga qarshi kurashda yordam so'raganliklari va o'shanda sulton ularni eshitmaganliginima'lum qilgan[17. 255]. Sheralixon bu bilan Usmonli-turk sultoniga ham ishonch yo'qligini keltirib o'tgan.

Ahmad Xulusi afandining Kobuldagi faoliyati xususida A.D. Vasilev ham keltirib, 1877-1878 yillardagi Rossiya-Turkiya urushi davrida barcha musulmonlarni birlashtirish zarurligi, urushdan foydalanib Rossiyadan Buxoro va Xivani ozod qilish lozimligini, bu boradagi ishlarda avg'onlarni turkmanlar va buxoroliklar qo'llab-quvvatlashi[3.] bilan bog'liq ma'lumotlarni keltirib o'tadiki, Buxoro va turkmanlar bilan Turk sultoni boshchiligida Rossiya imperiyasiga qarshi ittifoq tuzilgan deb xulosa qilish mumkin. Kobulga Usmonli-turk davlati elchilarining ko'p bora kelganligi tarixiy adabiyotlarda keltirib o'tilgan. Bu elchilar orasida Buxoro amirligi aholisi vakillari ham bo'lganligini tasdiqlovchi ma'lumotlar mavjud. Jumladan, 1877 yilning kuzida Kobulga yetib kelgan Usmonli-turksaltanati elchilariga yetakchi buxorolik bo'lganligi xususida ma'lumotlar saqlanib qolingan. Buxorodan bo'lgan ushbu shaxs XIX asrning 60-yillarda Buxoro-Usmonli-turk munosabatlarida faol ishtirok etgan Sulaymon afandi bo'lgan. Sulaymon afandi 60-yillar oxiridan Istambulda muqim yashab qolgan va "o'zbeklar" tekkesi boshlig'i bo'lib, keyingi vaqtlarda Istambulga turli yumush (asoan savdo, haj ziyorati uchun borganlar) bilan borgan buxoroliklardan inglizlar uchun ayg'oqchilar yollash bilan shug'ullangan. Elchilikning asosiy vazifasi Avg'onistonni Rossiya imperiyasiga qarshi urushga jalb etishdan iborat bo'lgan[7. 253].



Buxoro amirligi hududidagi turk targ'ibotchilari amirlikning harbiy-strategik ahvoli, aholining kayfiyati, amirlik qo'shinlarining tuzilishi, jangovar holati kabi masalalarni o'rganib, Usmonli-turk davlati va inglizlarga yetkazib turganlar. Shuningdek, Buxoroda turk agentlari turli mish-mishlarni tarqatish orqali Rossiya imperiyasiga qarshi kayfiyatni shakllantirish bilan ham shug'ullanganlar. Buxoroda turk targ'ibotchilari tomonidan 1877 yilda tarqatilgan xabarlarining birida, inglizlarning ruslarga qarshi 100 ming avg'on qo'shinlarini qurollantirganliklari, bundan tashqari Peshovarda ham 35 ming ingliz qo'shini turganligi, Buxoro amiri Turkiya bilan tuzilgan shartnomani buzadigan bo'lsa, bu qo'shinlar Buxoroni istilo qilib, uni Avg'oniston davlati tarkibiga qo'shilishini ta'minlashi bilan bog'liq ma'lumotlarni tarqatish bilan shug'ullanganliklarini ko'rish mumkin[1]. Deyarli barcha turk elchilari ham biz yuqorida keltirib o'tgan, yayg'oqchilik bilan shug'ullanganlar. Hatto, eng nufuzli hisoblangan elchilar ham o'zlari kelgan davlatlarning harbiy-strategik xarakteristikasi xususida ma'lumotlarni to'plaganliklariga oid ma'lumotlar saqlanib qolingan. 1878 yil yozida Kobulga kelgan Ahmad Xulusi afandi ham inglizlarga Avg'oniston armiyasi, uning qurollanishi, artileriyasi haqidagi ma'lumotlarni yetkazib bergan[17. 194]. Buxoro amirligida ham inglizlarning keng ayg'oqchilik tarmoqlari shakllantirilishiga harakatlar bo'lib, Istambulda buxorolik "o'zbeklar" tekkesi boshqaruvchisi Sulaymon afandi O'rta Osiyodan haj ziyoratiga, savdo ishlari bilan boruvchi buxoroliklarni inglizlar tomonidan yollanishiga, ular orqali esa, Buxoro amirligidagi ichki vaziyat, Buxoro davlatining boshqaruv tartibi, armiyasining tuzilishi, qurollanishi xususidagi ma'lumotlarni ingliz elchisi Leyardga yetkazib turgan[17, 195].

Bu vaqtda Rossiya hukumron doiralarining maqsadi, Avg'oniston orqali Angliyani tiyib turishga qaratilgan bo'lib, turklar va ularning inglizlar bilan hamkorligi xususidagi ma'lumotlarni Rossiya ma'murlari Sheralixonga yetkazib turganlar. 1878 yilda Avg'onistonda bo'lgan rus generali Stoletov ham Avg'oniston bosh vaziri shoh Muhammadxonga maktub yo'llab, inglizlar Usmonli-turk sultoni qo'li bilan Avg'oniston va inglizlarni ittifoqdosh qilishga urinishlaridan ogohlantirgan va daryoning narigi tomoni (Hind daryosi ko'zda tutilmoqda)dagi birodarlarini diqqat bilan kuzatishlarini maslahat bergan[10. 86]. Usmonli-turk emissarlari Rossiya imperiyasi bilan urush boshlanish arafasida Buxoro va Turkiston mintaqasiga tez-tez kelib, aholini, davlat rahbarlarini "g'azovot" urushiga jalb etishga harakat qilganlar. 1877 yilda Turk sultoni elchilari Kobul va Buxoroga bir necha bor keladi va Buxoro, Avg'oniston davlatlari amirlarini inglizlar bilan hamkorlik qilishga, munosabatlarni yaxshilashga chaqirgan[11. 108]. Usmonli-turk ayg'oqchi-targ'ibotchilarining Buxoro amirligi hududiga tez-tez kelib turishi xususidagi ma'lumotlar arxiv manbalarida ham ko'plab keltirib o'tilgan. Masalan, 1877 yilda Rossiya ayg'oqchilik tizimlari tomonidan to'plangan ma'lumotlarda, Hisor bekligida bir necha turk targ'ibotchilari paydo bo'lganligi, ular Buxoro amirligi aholisini ruslarga qarshi qo'zg'alishlari zarurligini targ'ib qilayotganliklari, beklarning aholisi orasida Rossiya imperiyasiga qarshi diniy fanatik kayfiyat kuchayib borayotganligini bilan bog'liq ma'lumotlarini o'z rahbarlariga



yo'llaganliklarini ko'rish mumkin[12]. Usmonli-turk targ'ibotchilari Buxoro orqali butun Turkiston hududlariga tarqalib, antirus kayfiyatini shakllantirishga harakat qilganlar. Shu sababli bo'lsa kerak Russ-turk urushi davrida Buxoro amirligi hududidan Turkiston o'lkasiga o'tuvchi va har qanday shubha uyg'otuvchi shaxslarni diqqat bilan tekshirib borilgan. Shubhali shaxslar va ularni tekshirib, tayyorlangan axborotlar yuqori idora va tashkilotlarga yuborilgan. Masalan, 1877 yilning avgustida Kattaqo'rg'on uyezdi boshlig'ining Zarafshon okrugi boshlig'iga yo'llagan №1366 raqamli xatida, 5 avgust kuni Kattaqo'rg'onga Buxorodan bir qozoq va bir turk (shubhali deb hisoblangan) kelganligi, ular Karimboy Davletshin uyida to'xtaganligi, uyezd ma'muriyati tomonidan ular targ'ibotchilar sifatida to'xtatilib, tintuv o'tkazilganligi va tergov qilinganligi xususidagi axborotini yozib yuborgan[13]. Bu turk emissarlarining targ'iboti kuchayib borganligini ko'rsatadi.

Targ'ibotlarning kuchli ta'siri natijasida Buxoro amiri ham Usmonli-turk saltanati bilan ittifoq tuzilganligini tarixiy adabiyotlardagi ma'lumotlar tasdiqlaydi. Buxoro shahriga 1883 yilda iyulda ilmiy tadqiqot ishlari bilan kelgan tarixchi V.V. Krestovskiy faoliyati davomida bir necha bor Buxoro qushbegisi mulla Muhammadbiy bilan suhbatlashadi. Suhbatlarning birida Buxoro qushbegisining ochiqchasiga russ-turk urushi davrida Abdulhamid II Buxoroga elchi yuborib, birgalikda Rossiyaga qarshi kurashishni taklif qilganligini keltirib o'tganligini V.V. Krestovskiy "Russkiy vestnik" matbuot organining 1884 yil iyul oyi sonlaridan birida chop etgan[17. 195]. Bu esa yuqoridagi fikr-mulohazalarimizni tasdiqlaydi.

"Turkiston to'plami"da keltirilgan ko'plab ma'lumotlarda, Usmonli-turk saltanatining Yevropa davlatlari tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, bu esa, uning Sharq musulmon dunyosida ustun mavqega ega bo'lishini ta'minlayotganligiga oid fikr-mulohazalar keltirib o'tilgan. To'plamning 185-tomidagi ma'lumotlarida, yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalarni asoslashga xizmat qiladigan ma'lumotlar mavjud bo'lib, Usmonli-turk saltanati nafaqat Sharqiy Yevropa mamlakatlari, balki, Xiva, Buxoro, Avg'oniston, Sharqiy Turkiston va boshqa ko'plab hududlarni Yevropa mamlakatlari qo'llab-quvvatlaganligi uchun qo'lida saqlab turibdi degan jumlar keltirib o'tilganligini ko'rishimiz mumkin[4. 4]. Bu yerda Usmonli-turk sultlarining musulmonlarning xalifasi ekanligi nazarda tutilgan bo'lsa kerak.

Turkiston general-gubernatorligi ayg'oqchilik idoralari Buxoroning Russ-Turk urushi davrida Rossiyaga qarshi urushga tortilish ehtimolini chuqur o'rganganlar. Turk elchilari va targ'ibotchilarining kelishi bilan ularning har bir qadamini kuzatib borganlar. Turkiston general-gubernatori K.P. fon Kaufman tomonidan Rossiya imperiyasi harbiy vazirga yo'llangan keyingi maktublarning birida, Buxoroni Rossiyaga qarshi urushga tortish uchun sultoni elchisi kelganligi, ma'lum bir muddat Buxoro shahridagi Kosagaron mahallasida yashaganligi, keyinroq esa, Shahrisabzga ketib, shu yerda targ'ibot ishlari bilan shug'ullanayotganligini ma'lum qilgan. Shuningdek, 1877-1878 yillardagi Russ-Turk urushi davrida Rossiya harbiy vaziri Milyutinga yo'llagan maktubida K.P. Kaufman Buxoro amirligini Usmonli-turk saltanati tomonidan Rossiya imperiyasiga qarshi kurashga tortishga harakat bo'layotganligini ma'um qilgan. Ushbu maktub 1877 yil iyulida vazirga yo'llangan bo'lib, Istambuldan Buxoroga amir



Muzaffarning o'g'li (Abdumalik to'ra)dan elchilar kelib, Usmonlilar bilan hamkorlikda Rossiyaga qarshi kurashish taklifi bilan kelgan [17. 196]. Bu kabi harakatlar natijasida Rossiya hukumron doiralari orasida Buxoro amirligini tugatish, uni Rossiya imperiyasiga qo'shib olish tarafdorlarini ko'paytirgan. Taniqli olim D.N. Logofet ushbu g'oyaning ashaddiy tarafdori bo'lib, u 1977-1878 yillarda Rossiya imperiyasiga qarshi Buxoro amirligining Usmonli-turklar bilan hamkorlikda urush rejasi bo'lganligini qayd etgan. Shuningdek, Turkiston general-gubernatorligida Buxoro amirining Rossiyaga qarshi urushga tayyorlanayotganligi xususida ma'lumotlar mavjud bo'lsada, Qorategin va Darvoz beklklari aynan Russ-Turk urushi (1877-1878 yy) davrida Rossiya qo'shinlari tomonidan Muzaffarxonga bo'yinsundirib berilgan[2. 14]. D.N. Logofet Buxoro amirligini Rossiyaga qaramligi, Russ-Turk urushi davrida Avg'onistonning Rossiyaga moyil siyosati va keyinchalik boshlanib ketgan ingliz-avg'on urushi davrida Shimoliy Avg'oniston (Janubiy Turkiston), ya'ni, sobiq Buxoro amirligiga tegishli bo'lgan o'zbek beklklari hududlarini ham Rossiya imperiyasi protektoratiga qo'shib olish imkoni bo'lganligini ta'kidlab o'tgan[9. 182].

Russ-Turk urushida Rossiyaning g'alabalari Angliya va uning kelajakdagi Osiyodagi siyosati uchun xavfli bo'lib, inglizlar urush davrida Istambulga elchi va ayg'oqchi Leyyardni yuboradilar. Istambulga yetib kelgan Leyyard Rus-turk urushi davrida Istambuldagi ikki o'rtada o'zaro tinchlik muzokaralariga imkon qadar yo'l qo'ymaslikka harakat qilgan. Shu bilan bir qatorda o'z hukumatiga yo'llagan axborotlarining birida, ingliz hukumatiga to'rta taklifini yozib yuborgan. Ushbu takliflarning uchinchi O'rta Osiyo davlatlariga, jumladan Buxoroga ta'liqli bo'lib, unda O'rta Osiyodagi musulmon davlatlarining Rossiya imperiyasiga qarshi kayfiyatni kuchaytirish va bu ishni Usmonli-turk sultoni ta'siri ostida amalga oshirish lozimligi keltirib o'tilgan[17. 189]. Ingliz elchisi Leyyard rus-turk urushi va undan keyingi davrda Usmonli-turk saltanati tashqi siyosatida asosiy yetakchi kuch bo'lib, aynan ushbu shaxsning tashabbusi bilan 1877 yil avgusti va 1878 yil yozida Avg'onistonga sulton elchilari (Ahmad Xulusi afandi va Sulaymon afandi) yuborilgan. Elchilar Leyyard topshirig'iga ko'ra, sultoni nomidan Avg'oniston amiriga Angliya bilan munosabatlarni buzmaslik, dushmanona kayfiyatda bo'lmaslik, Rossiyaga qarshi ittifoq bo'lishni talab qilganlar[17. 194]. Bu xususda yuqorida bir qadar to'liqroq to'xtalib o'tgandik. Avg'oniston amiri Sheralixon Rossiyaga qarshi ittifoqqa birlashmagan bo'lsada, Usmonli-turki saltanatining Rossiya imperiyasidan mag'lubiyatga imkon qadar hamdardlik bildirgan. Rossiya imperiyasi qo'shinlarining Istambulga yaqinlashib kelganligidan afsuslanganligini ma'lum qilgan. Shu bilan birga ittifoq taklif qilib va Usmonli-turk sultoni nomidan kelgan ingliz elchilarini Peshovarga qaytarib jo'natayotganligini, inglizlarga ishonib bo'lmasligini, ular foydalanib bo'lgach, xiyonat qilishi, zarur bo'lgan vaqtda yordam berish o'rniga taqdir hukmiga tashlab ketishlari xususidagi fikr-mulohazalardan iborat maktubni yozib yuborgan[6].

Inglizlarning bu safargi elchilari ham o'z oldiga qo'ygan vazifani uddalay olmagan. Russ-Turk urushi davrida, xususan uning oxirgi bosqichi jarayonlarida ingliz elchilarining faollashuvi San-Stefano shartnomasidan inglizlarning noroziligi



bo'lib, uni qayta ko'rib chiqishni talab qilganlar. Angliya tashabbusi bilan Avstriya-Vengriya ham antirus davlatlar lagerida ekanligi Rossiyaning qiyin ahvolga solib qo'ygandi. Inglizlar russ-turk urushidan so'ng antirus ittifoqini Yevropa va Osiyo shakllantirishga uringan[16. 116]. Bu esa, Rossiyaning O'rta Osiyo, jumladan Buxorodagi siyosiy va iqtisodiy hukumronligini xavf ostiga qo'yardi. Ikkinchi bir tomondan russ-turk urushida Rossiya g'alaba qozongan bo'lsada, iqtisodiy jihatdan bir qator qiyinchiliklarga duch kelgan. Urush xarajatlarini qoplash uchun aholi qo'lidagi pullarni olish maqsadida kredit qog'ozlar chop etilgan. Ammo, kredit qog'ozlar Rossiyaning o'zida tezda qadrsizlangan. Kredit qog'ozlar Buxoro bozorlarida ham amalda foydalanilgan. Ammo, ular Buxoro amirligida Rossiya imperiyasining boshqa mintaqalaridan ko'ra ko'proq qadrsinlangan. Ehtimol, Rossiyaga iqtisodiy zarba berish maqsadida pul yuvish ishlari amalga oshirilgandir. Ammo, ushbu fikrlarni tasdiqlovchi ma'lumotlarga ega emasmiz. M.N. Fyodorov keltirib o'tgan ma'lumotlariga ko'ra, 1878 yilda Buxoroda 1 rublli Rossiya kredit blankasi 45 koopeykka baholangan[14. 81]. Bu yuqoridagi fikrlarimizni asoslashga xizmat qiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytish mumkinki, O'rta Osiyo mintaqasida ingliz-rus raqobati XIX asr 70-yillaridagi xalqaro munosabatlarda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Ushbu munosabatlarning kulminatsion nuqtasi sifatida russ-turk urushi ekanligini ko'rish mumkin. Inglizlarning Rossiya imperiyasiga qarshi asosiy ittifoqchisi Usmonli turk saltanati bo'lib, bu ittifoq Turkiston o'lkasida mahalliy aholining diniy his-tuyg'ularini o'zlarining siyosiy maqsadlari yo'lida foydalanishga harakat qilganlar deyish mumkin.

birinchidan, Usmonli turk saltanati hukumdorlari o'zlarini butun musulmonlar xalifasi sifatida ko'rganlari bois, Buxoro amirligi va Afg'onistonni o'zlarining vassallari deb hisoblaganlar.

ikkinchidan, Buxoro va Afg'oniston davlatlari Rossiya va Buyuk Britaniya imperiyalarining protektorati bo'lib, ularning ruxsati bilangina xalqaromunosabatlarda ishtirok etishlari mumkin bo'lgan.

uchinchidan, Inglizlar va ruslar 1873 yilgi o'zaro kelishuvga deyarli amal qilmaganlar va o'zlariga qaram bo'lgan davlatlar hududida ayg'oqchilik ishlarini davom ettiraverganlar.

To'rtinchidan, 1877-1878 yillardagi russ-turk urushida inglizlar va turklarning yaqinlashuvi Afg'oniston va Buxoro davlatlari o'rtasida Usmonli turk saltanati foydasiga kuchli targ'ibotchilik ishlarining olib borilishiga sabab bo'lgan.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати.

1. Борба Петербурга и Стамбула за политическое, экономическое и культурно-религиозное влияние в Центральной Азии. (Б.Акунин).//http sozlib. Com850832 sotsium borba_stambula_politicheskoe_ekonomicheskoe_kulturno_religioznoe_vliyane_tse ntralnoy_azii



2. Брежнева С.Н. Бухарский эмират периода протектората России в трудах ученого-востоковеда Д.Н. Логофета. // Вестник КГУ (Краснодарского государственного университета). Им. Н.А. Некрасова 2009. №4. – С. 14. – С. 12-17.
3. Васильев А.Д. Взаимоотношения Османской империи и государств Центральной Азии в Середине XIX-начале XX вв. Автореферат соискание ученой степени кандидата исторических наук. – М.: 2007. www.dislib.net/vseobwaja-istoria/vzaimootnoshenija-osmansroj-imperii-i-gosudarstv-centralnoj-azii-v-seredine-XIX.html.
4. Венюков М.А. Очерк международных вопросов Азии // Туркестанский сборник. Том 185. – С. 3-51.
5. Из Оренбурга // Голос №273. 28 октября, 1878 года.
6. Из Оренбурга // Туркестанский сборник Том 195. – С. 30-31.
7. Кастельская З.Д. Из истории Туркестанского края (1865-1917). – М.: Наука, 1980. – 117 с.
8. Крупешкин Е.Н. Туркестан в составе Российской империи (1865-1917 гг.): От военно-административного управления к гражданско-административному. Диссертация на соискание ученой степени кандидата исторических наук. – Томск, 2018. – 190 с.
9. Логофет Д.Н. Страна безправия. Бухарское ханства и его современное состояние. – С.-Петербург, 1909. – 239 с.
10. Путешествие русского посольства пр Афганистану и Бухарскому ханству в 1878-1879 гг. Из дневников член посольства, Д-ра И.Л. Яворского. Действительного члена императорского Русского Географического общества в двух томах. Том II. – С.-Петербург 1883. – 387 с.
11. Россия-Средняя Азия: Политика и ислам в конце XVIII - начале XXI века. – М.: Издательство Московского университета, 2013. – С. 108.
12. ЎзРМА И-1 фонд, 19-рўйхат, 360-йиғма жилди, 1-варавнинг орқа томони.
13. ЎзРМА И-1 фонд, 19-рўйхат, 360-йиғма жилди, 3-варавнинг орқа томони.
14. Фёдоров М.Н. О ценах и рынках Бухары XIX-рубеже XX века // Узбекистонда ижтимоий фанлар. 1997. № 9-10-11. – С. 73-81.
15. Халфин Н.А. Провал Британской агрессии в Афганистане XIX - начало XX. – М.: Изд-во социально-экон. лит-ры, 1959. – С. 41.
16. Хараташвили Г.С. Русские путешественники посетившие Афганистан при эмире Шер Алихане (1863-1879) // Вестник СПбГУ. Сер. 13. 2009. Вып. 2. – С. 115-119.
17. Хидояттов Г.А. Из истории Англо-Русских отношений в Средней Азии в конце XIX в. (60-70 гг.). – Т.: Фан, 1969. – С. 255.
18. Шикорад А.Б. Россия-Англия: неизвестная война 1857-1907. – М.: АСТ, 2003. – С. 120. – 502 с.